

SHAHAR SHAROITIDA O‘Q OTISH USULLARI

X. Salimov

CHOTQMBYU Qurollanish va otish kafedrası
katta o‘qituvchisi podpolkovnik

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jahonda va mintaqada sodir etilayotgan lokal urushlarning zamonaviy harbiy harakatlaridagi qurolli to‘qnashuvlarda o‘q otishning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan. Mavzu doirasida qiyosiy tahlillar misol qilib keltirilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy-siyosiy vaziyat, jang, qurolli mojaró, taktik vaziyatli o‘q otish.

ABSTRACT

This article addresses special aspects of the armed conflicts in modern military activities of local wars taking place in the world and the region. A comparative analysis is given as an example within the framework of the topic.

Keywords: military-political situation, battle, armed conflict, tactical situational gunfire

Harbiy mojarolar tushunchasi keng masshtabli, mintaqaviy, mahalliy urushlar va qurolli to‘qnashuvlarni o‘z ichiga olgan barcha qurolli qarama qarshiliklardan iborat bo‘lgan harbiy harakatlardir.

Harbiy soha tadqiqotchilari K.Sivkovva P.S.Kazarinlar zamonaviy harbiy mojarolarning o‘ziga xos jihatlarini ana’anviy harbiy usullardan farqli ekanligini Ikkinchi Jahon urushidagi ana’naviy xarakterga ega bo‘lgan harbiy harakatlar bilan qiyosiy tahlil qilib, yoritib berganlar [1].

Shahar sharoitidagi noan’anaviy jangovar harakatlarning xronologiyasini kuzatadigan bo‘lsak, 2006 yildagi Livan urushidagi “Xizbulloh” diniy siyosiy tashkilotining harakatlarida yashirin pozitsiyalar va yerosti tonnellaridan foydalangan holda shuningdek, Livanning aholi punktlarida manyovrlar amalga oshirib Isroil armiyasi kuchlarini neytralizatsiya holatiga keltirishga erishgan. Ushbu taktika natijasida Isroil armiyasi Livan bilan Isroil chegarasidagi aholi yashash punktida ikki hafta davomida “Xizbulloh” tashkiloti pozitsiyalariga nisbatan samarasiz hujumlar olib borgan. Isroil armiyasi zamonaviy havo kuchlarini qo‘llaganligi sababli “Xizbulloh” a’zolarini tor-mor qilishga erishgan[1].

Shuningdek, Yaqin sharq davlatlarida faoliyat yuritayotgan “Islom davlati”ning muntazam kuchlarga qarshi olib borayotgan terroristik harakatlarini ham baholaydigan bo‘lsak, ularning harakati ham aynan noan’anaviy qurolli mojarolar sinfiga kiradi. “Iroq va Shomislom davlati” deb nom olgan terroristik tashkilot hozirda nafaqat yaqin Sharq davlatlariga, qolaversa, O‘rta Osiyo davlatlariga ham xavf solayotgani hech kimga sir emas. 2011 yilning mart oylarida “Arabbahori” nomi bilan boshlangan qo‘zg‘olonlar yaqin Sharq davlatlarida ommaviy tartibsizliklar, qurolli mojaro va qo‘zg‘olonlarni yuzaga keltirdi. 2014 yil aprel oyida Suriya davlati Qurolli Kuchlariga qarshi noqonuniy qurollangan qo‘zg‘olonchilar faoliyati keskin darajada jadallashdi. Suriya Arab Respublikasi Qurolli kuchlari tomonidan “Islom davlati” noqonuniy qurollangan tashkilotiga qarshi olib borilayotgan tadbirlar deyarli shahar sharoitida amalga oshirilmoqda. Ushbu kuchlarga qarshi o‘tkazilayotgan jangovar harakatlar o‘rganilganda, ular bilan kurash olib borish vaqtida qoidaga ko‘ra, dushman bilan to‘qnash kelgunga qadar, ya’ni masofali o‘t ochish jangi orqali yo‘q qilish amalga oshirilgan, bunda aviatsiya va artilleriya kuchlaridan foydalanilgan, bu harakatdan so‘ng yakuniy harbiy harakatlarni quruqlikdagi qo‘shinlar davom ettirayotganligini kuzatish mumkin[2].

Rossiyalik mutaxassislar Suriya davlatida olib boraётgan harbiy harakatlardan shunday xulosaga kelishdigi ISHID jangarilarning qat’iyatligi bilan jang olib borishligini ta’kidlashmoqda. Dushmanning tirik kuchlarini 50 foizini yo‘qotishlariga qaramasdan, o‘z pozitsiyasining tashlab ketmasligi, qabul qilingan qarorlariga amalga oshirish uchun oxirigacha kurashishligi kuzatilgan. ISHID pozitsiyalarni qo‘lga olish uchun dushmanning 90 foizgacha obyektlariga o‘t ochib shikastlanishni amalga oshirishgan. Jang davomida “ISHID” otryadlari o‘z pozitsiyalarini tashlab ketish holatlari bo‘lmagan. Jangarilar tayanch punktlarini ushlab turishni so‘ngi daqiqagacha olib borishgan [3].

Yuqorida keltirilgan, harbiy majarolarning tahlili shundan dalolat bermoqdaki, aksariyati harbiy harakatlar aholi yashash hududlarida sodir etilayotganligi, bu esa o‘z navbatida dushman bilan yaqin masofada jang olib borishda asosiy qurol sifatida o‘q otar qurollari xanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligidan dalolat beradi.

Suriyada shahar sharoitlaridagi jangovar harakatlarning o‘ziga xosligi o‘rganib, qo‘lga kiritilgan hududlar ustidan nazorat o‘rnatilishning muhim shartlaridan biri zamonaviy urushlar davomida muvaffaqiyatga erishishning o‘ziga xosliklarini namoyon qilmoqda.

Birinchiidan, jangovar to‘qnashuvning aniq bir chizig‘inigi yo‘qligi va uning vertikal bo‘yicha cho‘zilganligi (inshootlarning yer osti kommunikatsiyalaridan yuqori qavatlarigacha) va chuqurligi shaharda jangovar harakatlar olib borishning asosiy o‘ziga xosliklari.

Ikkinchidan, kuch va vositalar bilan manyovrlarni amalga oshirishdagi zirhli texnikalardan foydalanishdagi to'siqlar soni ko'pligi sababli paydo bo'layotgan qiyinchiliklar.

Uchinchidan, jangarilarning jang olib borish hududlar to'g'risida to'liq ma'lumotga ega ekanligi ustunligi.

To'rtinchidan, o'ziga xoslik jangovar harakatlar turar joy kvartallarida olib borilayotganligi.

Shubhasiz, sezilarli miqdorda tinch aholi qo'shinlar harakati uchun jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi va jangovar harakatlar zonasidan ularni olib chiqishni ta'minlash, joylashtirishni tashkil etish, ular orasidan jangarilarni aniqlash bo'yicha tadbirlarni o'tkazish uchun qo'shimcha kuch va vositalarni jalb qilishni talab qiladi. Bundan tashqari, shaharda fuqaro aholi mavjudligi eng kamida qiyinchilik tug'diradi, ba'zi hollarda esa artilleriya va aviatsiyani qo'llashga to'liq imkon bermaydi.

Shahar sharoitidagi harakatlarda harbiy kuchdan minimal foydalanib aholi yashash punktini qo'lga olish bo'yicha vazifani bajarish usullini topish eng asosiy muammo hisoblanadi. [4]

Yuqori qayd etilgan harbiy majorolar shuni ko'rsatdiki, turli sharoitlarda noan'anaviy urushlarni olib borish harakatlarining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari bujang olib borishda yuqori manyovrni namoyon qilgan holda o'qotar qurollaridan tezkorlik bilan hujumga o'tish yoki hujumni qaytarish bilan dushmanning tirik kuch va vositalarini yo'q qilish bilan samarali jang olib borish usullaridan foydalanish kabilardir.

Qisqa va o'rta masofalarda jang olib borish xatti-harakatlarining samaradorligini oshirish maqsadida o'qotish tayyorgarligi va maxsus taktika tayyorgarligi fanlarining bilim va ko'nikmalarini uyg'unlashtirish orqali taktik vaziyatli o'qotish mashg'ulotlarini shakllantirish bu bilan harbiy xizmatchilarning yakka tartibda yoki guruh tarkibida o'qotish usullarining ko'nikmalarini yuqori darajada shakllantirishni o'rganish, ushbu o'quv jarayonida o'qotish tayyorgarligi fanidan olib boriladigan o'quv mashg'ulotlarni esa real jangovar holatga yaqinlashtirilgan holda tashkillashtirilishi lozim.

Taktik vaziyatli o'qotish jang maydonida bo'lib o'tadigan turliharbiy vaziyatlarning maqsadidan kelib chiqib quyidagi miqyoslarda olib borilishi mumkin:

Qisqa masofada jang olib borish masofasi qisqa masofa 5 metrdan 20 metrgaqadar, yaqinmasofadan 20 metrdan 100 metrga qadar va o'rta masofadan esa 100 metrdan 500 metrga qadar olib borilishi mumkin.

Ushbu jang olib borish masofalari bo'linmalarining qurollangan qurolyarog'larining jangovar hususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Ushbu o'qotish harakatlarini jadallashtirish maqsadida turli o'zgaruvchan harbiy vaziyatlarni o'zida namoyon etgan nishonlar foni yaratiladi, o'quv jangovar harakatlarni amalga oshirish borasida jangovar taktik modellar yaratiladi.

Ushbu taktik vaziyatli o'qotish modelini shakllantirish uchun harbiy poligonlarning maxsus uchastkalarida turli taktik vaziyatlardan iborat bo'lgan modellar yaratiladi.

Taktik vaziyatli o'qotish mashqlarini bajarish jarayonida mashg'ulot rahbari nostandart harbiy vaziyatlarni inobatga olgan holda o'quv mashqlarining talablariga o'zgartirish kiritilishiga ruxsat beradi.

Tahlikali vaziyatlarda jangchi o'z hayoti uchun xavfli bo'lgan muhitda harakatlanishi, mudofaadan qarshi hujumga o'tish bu bilan shartli dushman nishonlariga qarab samarali jang olib borish mashqlarini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. P.S.Kazarin O sootnoshenii Ponyatyi "Voyna i voorujenniy konflikt" Konstantina Sivkov **HYPERLINK** "https://vvo.ric.mil.ru/Stati/item/15_5699/", Kak izmenilas voyennaya strategiya so vremen Vtoroy mirovoy voyni <https://russiancouncil.ru/analytics-and-comments/analytics/sovremennaya-voyna-etoborba-za-informatsionnoe-prevoskhodst/>.
2. Aleksandr Xomutov <https://arsenal-otechestva.ru/article/1406-obshchevojskoveformirovaniya-v-sovremennykh-voennykh-konfliktakh>.
3. Xalqaro terroristik tashkilotlar jangari guruhlarining shimoliy Afrika va yaqin sharq davlatlarida olib borayotgan jangovar harakatlari. <http://library.ziyonet.uz> › uzc › book › download.